

DORBOZLAR XALQ O‘YINLARI NOMODDIY MADANIY ME‘ROSI

Jovaqov Qodirbergan Otaboyevich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nomoddiy madaniy me‘ros hamda dorbozlik va uning xalq o‘yinlari orasidagi ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Moddiy, ma‘naviy, Gyote, madaniyat, milliy o‘yinlar, dorboz, xalq o‘yinlari, umuminsoniy madaniyat, ajdodlarimiz.*

O‘zbek xalqining o‘tmishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu davr ichida xalqning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyati jahon sivilizatsiyasining o‘lmas namunalariga aylandi. Xususan, o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi asrlar osha ajdodlar tomonidan sayqallanib, xalqning bebaho mulki bo‘lish bilan bir qatorda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sub'ektisifatida baholandi. Zero, nomoddiy madaniy meros insonni tarbiyalaydi, ulug‘laydi. Tabiat va xayot go‘zalligini ochib beradi. Unga mehr - muxabbat munosabatini oshiradi. Shu bilan birga nomoddiy madaniy meros muhim aqliy vazifani ham bajaradi. «Biz har qanday qobiliyatda yozilgan asarni», - deb yozadi Gyote - Ona xayotimizdagi faktlarni o‘rganishga ko‘maklashganligi uchun qadrlaymiz va e‘zozlaymiz.”

O‘zbek xalqi umumjahon madaniyati rivojlanishiga o‘zining sezilarli xissasini qo‘shgan va ayni vaqtda umuminsoniy madaniyatdan oziq olib rivojlangandir. Albatta buning zamirida o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi va uning o‘lmas namunalari turgan. Qadim o‘tmishimizda ham ajdodlarimiz nomoddiy madaniy merosimizga boshqacha mexr bilan qarashgan. Ijtimoiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlari tufayli vujudga keladigan yangiliklar voqelikka aylanadi. Bu yangi narsa eskidan olinib, mukammalroq bo‘ladi. Oqibat natijada, xalq ijodiyotining ajoyib namunalari har bir davrda rivojlanib yangilanib boradi. Xalq ijodi ayni vaqtda bu jarayon insoniyatning badiiy tajribasidagi an’analarni o‘zlashtirish bilan ham bog‘liqdir.

Xalq o‘yinlarining komil inson -shaxs sifatida shakllanishida etnopedagogik mohiyati va tasnifiy xususiyatlari quyidagilardan iborat. Xalq o‘yinlarining paydo bo‘lish tarixi jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlari bo‘lgan uzoq moziyga borib taqaladi. Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda ham xalq o‘yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli ma‘lumotlarni uchratamiz. Har bir xalq o‘tmish avlodlaridan qolgan madaniy merosiga ega bo‘lib, uning madaniy boyliklari xazinasiga xalq o‘yinlari ham kiradi. Xalq o‘yinlari o‘zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko‘ra g‘ayrioddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli, muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyoti qonunlariga hamohang belgilanadigan faoliyatdir .

Turli yozma manbalarda keltirilishicha, xalqimizning nomoddiy madaniy merosi durdonalaridan biri hisoblangan, YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan dorbozlik san‘ati tarixi qariyb 2,5 ming yilga borib taqaladi.

Dorbozlik - Baland dor ustida tomosha ko‘rsatish san‘ati, sirk san‘ati janri. Dor ustida har qanday noturg‘un holatda ham gavda muvozanatini saqlash mahorati namoyish etiladi. Dorbozlik taxminan 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo‘lgan, so‘ng butun dunyoga tarqalgan. Dor dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo‘lgan. Davr o‘tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o‘yinlari murakkablasha borgan. Dorboz o‘yinlari avval ochiq maydonlarda, XVIII asr oxiridan esa

sirk sahnasida namoyish etiladigan bo‘ldi va sirk san‘atining ajralmas qismiga aylandi, yangi taraqqiyot davrini boshladi.

O‘zbekistonda dorboz qadim tarixga ega. Ba‘zi manbalar Amir Temur saroyida ajoyib dor o‘yinlari ko‘rsatilganini tasdiqlaydi. Dorbozlik O‘zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa, Quva, Asakada taraqqiy etgan. O‘tmishda o‘zbek dorbozlari Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Eron, XVIII – XIX asrlarda Rossiyada o‘z mahoratlarini namoyish etganlari to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. O‘zbek dorbozlari 25 – 30 m balandlikdagi ustunlarga qiya qilib tortiladigan arqon ustida langarcho‘p bilan bo‘ladigan o‘yinlarni: yugurish (olg‘a, orqaga), sakrash, oyoqlarga pichoq yoki patnis bog‘lab, shuningdek, ko‘zni bog‘lab, boshga xalta yoki qozon kiyib yurish, yakka va qo‘sh chig‘iriqda o‘ynash kabi turli-tuman mashqlarni bajargan. Dor o‘yinlari dor tagida raqqoslarning o‘yinlari, qiziqchilar, askiyachilarning chiqishlari hamda an‘anaviy sirk turlaridan simdor, yog‘ochoyoq, nayrangbozlik, besuyak, muallaqchilik, o‘rgatilgan ayiq, ilon, maymun, ot, echki o‘yinlari bilan birga olib borilgan.

O‘zbek dorbozlari o‘z san‘atini dunyoning turli mamlakatlarida namoyish etmoqdalar. „O‘zbekdavlat sirk“ respublika birlashmasining Olimjon, Tohir Murod, Toshkanboyevlar rahbarligidagi „O‘zbekiston dorbozlari“ jamoalari qadimda dorbozlik an‘analarini zamonaviy sirkning badiiy ifoda vositalari bilan boyitib kelmoqda.

"Dorbozlar" nomi xalq o'yinlarining bir turini anglatadi, bu o'yinlar nomoddiy madaniy merosga mansub bo'lgan va milliy tarixning bir qismiga oid o'yinlardir.

Nomoddiy madaniy meros, bir xalqning asosiy o'yinlar, musiqa, raqs, milliy liboslar, o'yinchoqlar, rassomchilik va boshqalar kabi nomoddiy mahsulotlar va mulk ishlab chiqarish, o'rganish va tarqatishning jadal rivojlanishga, odamlarning milliy xotirasini saqlashga va identifikatsiyasi, milliy va mamlakatga xoslikni ifodalamoq uchun ifodali qadriyatlarini o'rganadi.

"Dorbozlar" nomi keng tarzda qo'llaniladi va dunyoning bir qator mamlakatlarda o'ziga xos bo'lgan milliy o'yinlar to'plamini ifodalaydi. Bu o'yinlar xalqning emotsiyalarini, mazkur xalqning tarixiy va madaniy guvohlarni o'z ichiga olish orqali o'naytirish vazifasini bajaradi.

"Dorbozlar" nomi ostida addiy o'yinlarni tashkil etayotgan xalq o'rtasidagi obrazlar, etik etiborlar, nomoddiy madaniy meros va uning tarqalishini tushuntirish uchun qo'llanilgan nomoddiy qodiriyatlarni ifodalaydi. Bu o'yinlar xalqning madaniy merosini ta'vil va axborot tahrir huquqlari asosida saqlab qolishda muhim asosiy kontent turlari bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqodlari va marosimlari. -T. 2007.
- 2.Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.
- 3.Imomov K. Mirzayev T.Sarimsoqov B. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: «O‘qituvchi», 1990. 4.Madayev O. Sobitova T, Xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: «Sharq», 2001.
- 5.MurodovM., Qoraboyev U., RustamovaR. Etnomadaniyat.-T.:Adolat, 2003.
6. Sulaymonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Namangan, 2008.
- 7.Ashirov A. Atadjanov Sh. Etnologiya. - T. 2007.